

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MARHABO UMURZOQOVA

**“O‘ZBEK TILI TARIXI”
FANIDAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI**



TOSHKENT – 2018

OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Marhabo Umurzoqova

"O'ZBEK TILI TARIXI"
FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun mazkur uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 7-dekabrda 1000-sonli buyrug'i bilan (buyruqning 4-sonli ilovasi) tasdiqlangan "O'zbek tili tarixi" fani dasturi hamda ToshDO'TAU Kengashining 2018-yil 27-avgustda tasdiqlangan ishchi dastur asosida tayyorlangan. 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishining talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

M.Rahmatov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

N.Ahmedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy ko'rsatma O'zbek filologiyasi fakultetining ilmiy Kengashi 2018-yil 28-avgustdagi yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

"O'zbek tili tarixi" fani o'zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, davrlar osha yetib kelgan qo'lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik xususiyatlari haqida bilim berish vazifasini bajaradi. Tarixiy grammatika til tarixi fanining bir qismi bo'lib, qadimgi turkiy til, adabiy til tarixi fani bilan chambarchas bog'liqdir. "O'zbek tili tarixi" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatmada mashg'ulotlarda tahlil qilish uchun matn namunalari berilgan. Har bir mavzu uchun variantlar berilgan. Uslubiy ko'rsatmada laboratoriya ishlari mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda belgilandi. Uslubiy ko'rsatmada laboratoriya ishlarining quyidagi turlari berildi:

1. Jamoa bo'lib ishlashga qaratilgan laboratoriya ishlari. Bunday mavzularda variantlar guruh bo'lib ishlash uchun mo'ljallangan.
2. Yakka tartibda ishlashga qaratilgan laboratoriya ishlari. Guruhdagi har bir talaba uchun alohida variantlar berildi.

Laboratoriya ishlarini bajarishdan avval mavzuga doir nazariy bilimlar yodga olinishi lozim. Shu maqsadda uslubiy ko'rsatmada har bir laboratoriya mashg'uloti dastlab o'tilgan mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar tahlilini o'tkazishga qaratilgan topshiriq bilan boshlanadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari

№	Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari	Dars soatlari hajmi
7-семестр		
1.	Matnni tahlili. Sintaksis. Eski o'zbek tilida so'z birikmalari tahlili.	2
2.	Sodda gaplar.	2
3.	Murakkablashgan sodda gaplar: Undalmalar, kirish so'zlar, ajratilgan gap bo'laklari	2
4.	Murakkablashgan sodda gaplar: Ko'p predikatli gaplar (fe'ning vaziva shakllari).	2
5.	Murakkablashgan sodda gaplar: Ko'p predikatli gaplar (kiritma va izoh gaplar).	2

6.	Qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplar	2
7.	Qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar	2
8.	Ko'chirma gapli qo'shma gaplar .	2
9.	Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lugatit turk" asari ustida ishlash	2
10.	Tarixiy-badiiy asarlar matnida badiiy san'atlarning ifodalanishi	2
11.	Tarixiy grammtik asarlar hamda lug'atlarning adabiy til taraqqiyotidagi o'rni	2
	Jami	22

1-LABORATORIYA ISHLANMASI

MAVZU: MATN TAHLILI. SINTAKSIS. ESKI O'ZBEK TILIDA SO'Z BIRIKMALARI TAHLILI.

Darsning maqsadi: talabalarning eski o'zbek tilida so'z birikmalarining qo'llanilishi, ularning turlari haqida nazariy ma'lumotlarini mustahkamlash, tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

1-VARIANT.

1- topshiriq. Alisher Navoiy qalamiga mansub hikoyatdan olingan quyidagi matn parchasini transkripsiya qiling. Unda keltirilgan so'z birikmalarini ajrating. So'z birikmalarining turlarini aniqlang.

Shoh Bahrom hikoyati

(Bahromning may ta'siridan baxtining ko'zi uyquga ketib, mamlakatining binosi bu seldan yiqilgani va mazlumlar faryodidan uyg'onib, buning chorasini ko'rgani)

Yazdijird jahon mulkini tark etgach, Bahrom maishatga berilib ketdi. G'aflat bodasi uni mast qilib, mastgina emas, bodaparast qilib qo'ydi. Shoh mayni ichib, mastlik uyqusiga ketishi bilan boshqa mastlar uning mamlakatini xarob etishga boshladi. Ko'ngli xastalarning ko'nglini ovlashni o'ylamay, ishlari faqat dashtda ov qilish edi. Ichkilik ichib, yomonlik qiluvchilar uning mamlakatini yer bilan yakson qilishdi. Bahrom ov qilib yurib, bir kun adashib qoldi. Shunda u birovning chaylasiga kirib, mehmon bo'ldi. U chayla emas, hijronning qora kechasidek qorong'i, zulm-sitam qushlarining tuzog'iga o'xshagan, oshiqslarning ko'ngul uyidek buzuq, yog'ochlari o'qqa o'xshab har tomondan chiqib turgan joy edi. Bu chaylani zulm o'qlari teshgani ko'rinish turar; bir necha mazlumlar u yerdan boshpana topgan edi.

2- topshiriq. Berilgan she'riy parchani so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalarini sintaktik tahlil qiling.

Yo rabki, inoyatingni yor ayla manga,

Yo'quqqa hidoyatingni bor ayla manga,

Har kahfi kifoyatingni dor ayla manga,

Har durri inoyating nisor ayla manga (Alisher Navoiy).

Har kimki vafo qilsa, vafo topqisidur,

Har kimki jafu qilsa, jafu topqisidur,

Yaxshi kishi ko'rماغay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqisidur (Bobur).

3- topshiriq. Matndan so'z birikmalarini ajrating, ajratib olingan so'z birikmalarining tarkibiy qismlarini aniqlang va ularga tavsif bering.

Iflos va notavonlig' hangomida, ya'ni falokat va nomurodlig' ayyomida goh ilm madorisida safi niolda yer tuttum, goh ulamo majlisida ilm nuridin ko'ngulni yoruttum. Goh atqiyu masojidida alar qadami yetgan yerga yuz qo'ydim va sajda kasratidin manglayim terisini so'ydim. Va goh safo xonaqohi ahli ibrikig'a suv quymoq bila arjumand bo'ldum va goh fano dayri xayli sabukashligidin sarbaland bo'ldum. Va goh laimlar olida xorlig' va goh arzollar olida bee'tiborlig' ko'rdum. Va goh ishq ko'yida beboklik va odamiykush parichehralarg'a haloklik dast berdi. Va goh junun mahallasida arzol bo'ynumg'a silliy urdilar va atfol boshimg'a tosh yog'durdilar va goh shahrim eli sitamidin g'urbatka tushtum va g'arib xaloyiqqa qo'shuldum va qovushtum. Va jibol kullasi oromgohim bo'ldi va goh saxro etogi panohim bo'ldi. Va goh g'urbatda alil va g'arib elga zalil bo'ldum. Goh bu shiddatlardan azmi vatan qildim. Va goh azizlar xizmatidin o'zumni bahramand va so'zumni dilpisand va arjumand toptim.

2-VARIANT

1- topshiriq. Alisher Navoiy qalamiga mansub hikoyatdan olingan quyidagi matn parchasini transkripsiya qiling. Unda keltirilgan so'z birikmalarini ajrating. So'z birikmalarining turlarini aniqlang.

Zamona zulmidan ularning hammasi yalang'och, zulm qo'lining shapalog'idan hammasining qaddi bukilgan edi. Bitta qotgan non bilan suv olib kelib, uy egasi ularga xizmat qila boshladi. Shoh ahvolni ko'rib, nima gapligini so'radi. U: - Ahvol mana shu ko'rib turganingday, - deb javob berdi. Shoh dedi: - Bu faqirlik, ojizlik, muhtojlik nimadan? Buning hamma sirlarini ro'yi rost ayt. U dedi: - Burun ahvolimiz yaxshi edi. Bizning ahvolimizni zulm xarob qildi. Shoh xalqning ahvolidan xabardor emas. Unga may va kuydan boshqa narsa kerak emas. Uning odamlari tama' og'zini keng ochib, mamlakatni yer bilan teng qilishdi. Shohning ko'ziga ro'para bir koshona

ko'rindi, lekin uning har xonasi vayrona edi. Shoh so'radi: - Bu vayrona ilgari nima edi? U javob berdi: - Saroy edi. Atrofi esa bog' edi. Unda eskidan eski daraxtlar, yangi chiqqan gullar o'sar edi.

2- topshiriq. Berilgan she'riy parchani so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalarini sintaktik tahlil qiling.

Gar oshiq esang, zebu takallufni unut,
Yaxshiyu yamon ishda taxallufni unut,
O'tgan gar erur yamon, taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut (Alisher Navoiy).
Ey ishq, aning ko'yida tavfi haram et,
Bizni dog'i ul tavfg'a boshla, karam et,
Bir doira ko'yi tegrasida raqam et,
Gar chiqsa ayog'im, raqamingdvn qalam et (Alisher Navoiy).

3- topshiriq. Matndan so'z birikmalarini ajrating, ajratib olingan so'z birikmalarining tarkibiy qismlarini aniqlang va ularga tavsif bering.

Ammo shug'l va komronliq chog'ida va ko'ngul mulki xalq hujumi bulg'og'ida va goh amorat masnadida o'turdum va hukm va hukumat mahkamasida dodxoh so'rdum va goh podshoh nayobatida taraqqub tuzdum va nazzoragar elga o'zumni komron ko'rguzdum. Va goh makrumat ayvonini makon qildim va akobir va ashrofn ta'zim yuzidin mehmon qildim. Va goh nishot bog'ida bazm tarhi soldim va soqiy va mutrib bazmu simoidin bahra oldim. Va goh salotni muxolafatlarida arog'a kirdim va munozaatlarin muvofaqatg'a qaror berdim. Goh harb ma'rakasig'a o'zumni soldim, va jahl va nodonliq tuhmatin bo'ynumga oldim. Va goh xayrot ahlig'a o'zumni qottim va har nav' xayr buq'alari tuzattim, andoqki, sa'yimdin rabotlar bo'ldi va andin musofirlarg'a nishotlar bo'ldi. (Alisher Navoiy. "Mahbub ul- qulub"dan)

3-VARIANT

1-topshiriq. Quyidagi savollarga jabob bering.

1. Eski o'zbek tilida so'z birikmalarining tuzilishga ko'ra qanday turlari uchraydi?

2.Hokim so'zning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmalarining qanday turlari bor?

3.So'z birikmalari tarkibidagi so'zlarni biriktiruvchi vositalarni sanang.

2- topshiriq. Alisher Navoiy qalamiga mansub hikoyatdan olingan quyidagi matn parchasini transkripsiya qiling. Unda keltirilgan so'z birkmalarini ajrating. So'z birikmalarining turlarini aniqlang.

Ikki tegirmon koriz suvi ham bor edi. Bu ajoyib suv dehqonchilik daromadlari bilan shu joyni kent, hatto shahar qilib yuborgan edi. Endi korizga qarashga kuch qolmadi. Taqdirning unga ko'zi tegib, ko'r bo'lib qoldi. Suv qurigandan keyin bog' ham quridi; gul ham qolmadi: gul u yoqda tursin, uning yafrog'i ham. Binoni suvash, tuzatishga ham kuch yo'q; bu ishlarni bajaradigan odamlarning o'zi ham qolmadi. Bog' va saroy - hammasi yer bilan yakson bo'ldi, zulm, tama' esa birga yuz bo'ldi. Zamona zulmi mollarni olgandan keyin shu yomon o'jizlik, shunday bir ahvolga tushib qoldik. Shoh shu pardaning o'zidagi o'rish-arqoqdan ahvolni tushunib, joni o'rtandi, boshidan tutun ko'tarildi. G'am qilichi bag'rini chok-chok qilib, g'ussadan o'lishiga sal qoldi. Mastlik g'aflatidan uyg'onib, joni xumor o'ti bilan yona boshladi. Aysh-u ishratdan, xursandchilikdan ko'ngli sovib, hamma qilayotganlari xato ekanini tushundi.

3- topshiriq. Berilgan she'riy parchani so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalarini sintaktik tahlil qiling.

Yoshing'a bag'ir qoni chu erdi monand,
Ko'z asradi yoshdek bo'lub andin xursand.
Turmadi ko'zumda yetkach ul sarvi baland,
Bo'lmas kishi farzandi kishiga farzand. (Alisher Navoiy)

* * *

Ko'zum uchadur, magarki yorim keladur,
Es har dam ozar, magar nigorim keladur.

Yo bodiyayi firoq sayrida qilib

Yuz marhala qat' shahsuvorim keladur. (Alisher Navoiy)

4-VARIANT

1- topshiriq. Alisher Navoiy qalamiga mansub hikoyatdan olingan quyidagi matn parchasini transkripsiya qiling. Unda keltirilgan so'z birkmalarini ajrating. So'z birikmalarining turlarini aniqlang.

Zolimlarni yo'qotishni fikr qilib, adolat qilishni ko'nglidan o'tkaza boshladi. Xudoning nomi bilan shu niyatni qilgan edi, shu paytda bir odam xushxabar keltirdi. U dedi: - Korizni teshib, obi hayotdek pok va sof suv chiqib ketdi. Uy egasi Tangriga shukr qilib, dedi: - Ayshga berilgan shoh zulmni qo'yib, adolatni niyat qilgan edi, bundan darhol yaxshi xosiyatlar ko'rina boshladi. Shohga bu so'z ham tanbeh bo'ldi; uzr aytish bilan uni boy qildi-da, u bilan xayrlashdi. Mamlakatga qaytib, adolat ko'rsatdi; g'am bilan ezilgan xalqni shod qildi; g'am bilan ezilgan xalq shod, bu hol mamlakatiga ham tez ta'sir etdi. G'oziy podshohimiz bir nafas yo'qki, mamlakat va xalq g'amini yemasin. Shunday ekan, uning mamlakati obod bo'lsa, ne ajab! Xalqi ham shod ekan, bunga hayron bo'lmaslik kerak. To abad uning orzulari ushala

borsin! Shu hol xasta Navoiyda ham yuz bersin! Soqiy, yoqimli qadahni olib kel, shohni baland ovoz bilan duo qilib, uni menga tut. Jonim qiynalyapti, birpas uni shod etay, tan uyini shu suv bilan obod etay!

2- topshiriq. Berilgan she'riy parchani so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalarini sintaktik tahlil qiling.

La'lingni qilib nuktasaro, ey qaroko'z,
Ishq ahli hayotig'a yaro, ey qaroko'z.

Chekma yana surma ko'z aro, ey qaroko'z,
El jonig'a qilma ko'z qaro, ey qaroko'z. (Alisher Navoiy)

* * *

Jonbaxsh labing chashmayi hayvonmu emas?!

Hajridin oning ichim to'la qonmu emas?!

Har qatravi qon la'li Badaxshonmu emas?!

Har porayi la'li javhari jonmu emas?! (Alisher Navoiy)

3- topshiriq. Matndan so'z birikmalarini ajrating, ajratib olingan so'z birikmalarining tarkibiy qismlarini aniqlang va ularga tavsif bering.

Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qora tufrog'din gullar ochar va mulk ahli boshig'a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig'i siyosatidin farsuda. Hirosatidin qo'yu qo'zi bo'ri xavfidin emin va siyosatidin musofir ko'ngli qaroqchi vahmidin mutmain. Rif'atidin har maktabda atfol g'avg'osi va muxofazatidin zuafo hammomida alarning alolosi, haybatidin yo'llar qaroqchidin xoli va qo'llar to'la ulus moli va zabtidin amaldorlar qalami sinuq va sitamkorlar alami yikuq. Jiddidin masojid jamoat ahlidin mamlu va madoris bahs va jadal xaylidin g'uluv. Qisosi tig'idin o'g'ri ilgi el molidin ko'toh, intiqomi biymidin qoti' tariq holi adam biyobonida taboh. Tunning ko'pi do'konlarda savdo uchun sham' va avbosh ko'cha gashtidin ko'ngullari jam'. Shomdin to sahar xonaqohlar eshigi ochuq va xilvatlar ibodat nuridin yoruq. Shahrd qo'ylar posboni ul, yozida qo'ylar shuboni ul. Raiyyatg'a saro va bog' andin ma'mur va sipohig'a kom va farog' andin mavfur. (Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"dan)

5-VARIANT

1- topshiriq. Alisher Navoiy qalamiga mansub hikoyatdan olingan quyidagi matn parchasini transkripsiya qiling. Unda keltirilgan so'z birikmalarini ajrating. So'z birikmalarining turlarini aniqlang.

Ikki favodor yor hikoyati

Eshittimkim, baxtli podshoh, to'rt ulusning xoni Temur Ko'ragon iqlimlarni fath etishga kirishganda, Hindistonda qattiq jang bo'ldi. Unga g'alaba yuz ko'rsatib, taqdir dushman lashkariga shikast soldi. Dushmanlarning hammasi dinsiz bo'lgani uchun (Temur) bek: «Hammasini qilichdan o'tkazinglar!» - dedi. O'liklarning ko'pligidan dashtlar to'lib ketdi. Qizil qon Nil bo'lib oqdi. O'sha soy toshicha kallalar uchdi; har kishi o'zboshimchalik bilan bosh oldi. O'tkir tig'lar har tomonda qon to'kib, butun olamga g'avg'o soldi. Shu payt ikkita bechora sevishgan nogoh ushbu qotillarga duch keldi. Shohning jazosidan omon qolish uchun askarlardan biri ularning birini chopmoqchi bo'lib otidan tushdi. Uni o'ldirish uchun askar yonidan tig'ini chiqargan edi, unisi o'z sherigini tig' ostida ko'rib, uni himoya qilish uchun qotilga o'z boshini tutdi. - Agar sening maqsading bosh olish bo'lsa, uni qo'y, uning o'rniga bu boshni ola qol! -dedi u.

2- topshiriq. Berilgan she'riy parchani so'z birikmalariga ajrating. So'z birikmalarini sintaktik tahlil qiling.

Gar oshiq esang, mehru vafo qilma havas,

Dard istavu da'ig'a davo qilma havas,

Hijronu visol mutlaqo qilma havas,

Dildoringdin g'ayri rizo qilma havas (Alisher Navoiy).

* * *

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish (Alisher Navoiy).

3- topshiriq. Matndan so'z birikmalarini ajrating, ajratib olingan so'z birikmalarining tarkibiy qismlarini aniqlang va ularga tavsif bering.

Andin kechalar atrok zuafosi ishi o'rg'ushtak va atfol varzishi oq so'ngak. Ajuzlar charx uni maddi bila aning duosig'a nag'masoz va kanizaklar momuq sabamoq uni bila aning olqishig'a nag'mapardoz. Fuqaro ishi anga ham duo va ham nozish, aning da'bi fuqarog'a ham saxo va ham navozish. Ochlar g'izosi bazl va atosni xonidin, yalang'ochlar libosi xizonai lutf va ehsonidin. Mulk bog'in ma'mur qilurg'a abri'serob va mulk ahli ko'zin yoruturg'a mehri jahontob. O'zga mulkning raoyo va xalqi aning orzusida va yana kishvar mazlumlari aning adli duosi guftigo'sida. Yaxshi otig'a ulamo ishi rasoil tartibi va yaxshi sifotig'a shuaro varzishi qasoyid tarkibi, mug'anniylar ishtig'oli sanosi uchun surud tuzmak va musanniflar maqoli duosi ohangida nag'ma ko'rguzmak. Xalq rizosidin haq rizosig'a tolib va